MUAMMOLI TA’LIM – TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASH VA MUAMMOLARNI YECHISHGA ASOSLANGAN PEDAGOGIK USUL

Aytbayev Dilshodxuja Temirbayevich
Nizomiy nomidagi O‘zMPU professori, filologiya fanlari doktori (DSc)
Dauanova Nazerke Ergali qízí

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim fakulteti
4-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada muammoli ta’lim bu mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, izlanish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlar, echim topish, bilishga qiziqish, ehtiyoj, usullar qo‘llaniladigan bir yangicha tizim ekanligi, tabaqalashtirilgan ta’limning muammoli o‘qitish mexanizmi va Muammoli ta’lim texnologiyalari – o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslanganligi haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim, muammoli ta’lim, ta’lim mazmuni, tabaqalashtirilgan ta’lim, muammoli ta’lim texnologiyalari, kommunikativ qobiliyat**,** differensial ta’lim.

Bugungi zamonaviy ta’lim yoshlardan kuchli salohiyatli, raqobatbardosh, maxsus qobiliyatli, zamon bilan hamnafas, maqsadli, ilmiy-texnika taraqqiyot talablariga javob beradigan, mustahkam irodali bo‘lishni talab etadi. Bu kabi sifatlarni amalga oshirilishda esa muammoli ta’lim texnologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli ta’lim bu mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, izlanish, umumlashtirish, muammoli vaziyatlar, echim topish, bilishga qiziqish, ehtiyoj, usullar qo‘llaniladigan bir yangicha tizimidir [2; 248].

So‘ngi yillarda ta’lim mazmunini samaradorligini oshiruvchi ta’limning bir qator ishonchli interfaol metod va yo‘llari izlanmoqda. Hozirgi kun tajribasida muammoli ta’lim deganda mashg‘ulotlarda o‘qituvchi-pedagoglar tomonidan yaratiladigan muammoli vaziyatlar va ularni yechishga qaratilgan o‘quvchilarning faol mustaqil faoliyati tushuniladi. Buning natijasida talabalar kasbiy bilimlarga, ko‘nikmalarga ega bo‘ladi va fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi [4; 144].

Tabaqalashtirilgan ta’limning muammoli o‘qitish mexanizmi talabalarga muammoni aniqlab, uni yechish uchun yangi bilimlarni izlash, ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash, tadqiqot va yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Bu usulda talabalar muammoli vaziyatlarga duch kelib, ularni mustaqil yoki guruh bo‘lib hal qilish orqali bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Muammoli ta’limning asoschisi **Djon Dyui** hisoblanadi [6]. U XX asr boshida ta’limda faol ta’lim usullarini targ‘ib qilgan. Dyuining fikricha, differensial ta’lim jarayonida talabalar faol ishtirok etishi va o‘z bilimlarini amaliy tajriba orqali qo‘lga kiritishlari kerak bo‘ladi.

Muammoli ta’lim – ta’lim jarayonini olib borishda o‘quvchilar oldiga yechish uchun muammoni qo‘yish orqali muammoli vaziyatni vujudga keltirish va mashg’ulot davomida uning yechimini topish. Muammo o‘qituvchi tomonidan yoki o‘quvchilar tomonidan qo‘yilishi mumkin. Muammoli ta’lim texnologiyalari – o‘quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan [5] .

Muammoli ta’limning asosiy turlari sifatida m**uammoli topshiriqlar, loyiha asosida o‘qit**ish, **tadqiqot va izlanishlarga jalb qilish qayd etiladi [3; 240]. Bunda** talabalarga muammoli savol va vaziyatlar berish, muayyan loyihani bajarish orqali bilim olish, mustaqil ravishda ma’lumot to‘plash va tahlil qilish orqali muammolarni yechish ko‘nikmalari shakllantiriladi. Muammoli ta’limning mohiyati – talabalar-ning fikrlash, muammolarni aniqlab, ularga yechim topish qobiliyatlarini rivojlan-tirishda korinadi. Bu usulda o‘qituvchi talabalarga tayyor yechimlarni bermaydi, balki ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Muammoli ta’limning o‘ziga xos af**zalliklari mavjud bo‘lib, ulardan** talabalar muammolarni o‘zi yechish orqali mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish, qiziqishlarini uyg‘otish, nazariy bilimlarni amalda ijodiy qo‘llash, guruhda ishlash orqali ijtimoiy tajribalarini oshirish imkoniyatlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Muammoli ta’limning o‘ziga xos qiyinchiliklari sifatida ta’lim jarayoni ancha vaqt olishi, h**ar bir talabaga moslashtirishning qiyin** kechishi, ya’ni barcha talabalarning bilim

darajasi va qobiliyati turlicha bo‘lishi mumkinligi, muammoli ta’lim uchun qo‘shimcha materiallar va manbalar, resurslar kerak bo‘lishini e’tirof etish kerak bo‘ladi.

Muammoli ta’lim ijtimoiy-pedagogik jihatdan quyidagi ahamiyatga ega:

– **ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi** – talabalar guruhda ishlash orqali ijtimoiy tajriba va mahoratlarni oshiradi;

– **ijtimoiy muammolarni yechishga tayyorlaydi** – talabalar ijtimoiy muammolarni aniqlab, ularga yechim topishga o‘rganadi;

– **faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantiradi** – muammolarni yechish orqali talabalar ijtimoiy jarayonlarga faol ishtirok etishga tayyor bo‘ladi.

Djon Dyui: “Muammoli ta’lim – bu hayotga tayyorgarlik emas, balki hayoting o‘zidir deb differensial ta’lim jarayonida talabalar bilim va ko‘nikmalarni amaliy tajriba orqali o‘rganishi kerak”ligini ta’kidlasa, **Lev Vigotskiy [6]**: “Muammoli ta’lim talabaning rivojlanish zonasiga ta’sir ko‘rsatishi kerak, bu uning differensial ta’limda mustaqil fikrlash qobiliyatini oshiradi”, deb yozadi [1; 68]. O‘z navbatida, **Jan Piaje [7]**: “Muammoli ta’lim talabaning kognitiv rivojlanishiga yordam beradi, chunki ular differensial ta’limda yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirish va ularni amalda qo‘llash orqali o‘rganadi”, deb hisoblaydi.

Ma’lum bo‘ladiki, tabaqalashtirib o‘qitishda muammoli ta’lim talabalarning tanqidiy fikrlash va muammolarni, mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirishga asoslangan pedagogik usuldir. Bu usulda talabalarga muammoli vaziyatlar taqdim etiladi, ularning yechimini topish uchun talabalar o‘zlari tadqiqot olib borishlari, yangi bilimlarni o‘zlashtirishlari va ijodiy fikrlashlari talab qilinadi.

Muammoli ta’limning asosiy mexanizmlarini quyidagilar tashkil qiladi: m**uammoli vaziyatlarni yaratishda t**alabalarga tushunishli bo‘lmagan, ammo hal qilishi mumkin bo‘lgan masalalar taqdim etiladi; t**adqiqot va izlanish jarayonida t**alabalar muammolarni yechish uchun o‘zlari ma’lumot to‘plash, tahlil qilish va farazlarni tekshirishlari kerak bo‘ladi; h**amkorlik va muloqot paytida t**alabalar birgalikda ishlash, fikrlarni almashish va bir-birining javoblarini baholash orqali o‘rganishadi hamda n**atijalarni umumlashtirishda t**alabalar topgan yechimlarni tahlil qilish va ularning amaliy ahamiyatini baholashlari talab qilinadi.

Tabaqalashtirib o‘qitishda muammoli ta’limning asosiy pedagogik ahamiyati: m**ustaqil fikrlashni rivojlantirish t**alabalarning muammolarni yechish orqali mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi; i**jodiylikni rivojlantirish y**angi yechimlarni izlash va yangi yo‘naltirishlarni sintaksislash orqali ijodiylik qobiliyati oshiriladi; b**ilimlarni chuqur o‘zlashtirish t**alabalar o‘zlashtirgan bilimlarni amalda qo‘llash orqali chuqurroq tushunishga erishtiradi va k**ommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish asosida g**uruhda ishlash va fikrlarni muloqot orqali ifodalash qobiliyati oshiriladi.

Muammoli ta’lim zamonaviy differensial ta’lim jarayonlarida keng qo‘llaniladi va talabalarning shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yixati:

1. Выготский Л. С. Собрание сочинений: В 6 т. Т. 3. – М.: Педагогика, 1983. – С. 68.

2. Kadyrova H.Y. Problem-based educational technology as the most effective method of teaching. "Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz August 2023 / Volume 4 Issue 8. –P. 248.

3. Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi., – Toshkent Moliya instituti. – T.: “Iqtisod-moliya”. 2009. – 240 b.

4. Sulaymanova S.B. Muammoli ta’lim texnologiyasining tavsifi va uning samaradorligi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. (E)ISSN: 2181-1784 3(12), Dec., 2023. -B. 144.

5. Педагогика профессионального образования. Под ред В.А. Сластенина. – М.: Академия, 2004.